



UO*K: 331.1:340.5:614.8(100)

Diyorxon MURODOV,
Talaba, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston
E-mail: murodovdiyorxon@gmail.com
Ravshan OXUNOV,
Dotsent, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston
E-mail: okhunovravshan@gmail.com

PhD Sh.Xojiyeva taqrizi asosida

LEGAL AND REGULATORY FOUNDATIONS OF EMPLOYEE PROTECTION IN EMERGENCY SITUATIONS: A COMPARATIVE ANALYSIS

Annotation

This article presents a comparative analysis of the legal and regulatory framework for the protection of employees in emergency situations. The study examines the labor legislation and emergency laws of the Republic of Uzbekistan, the Russian Federation, and foreign countries. As a result of the research, proposals were developed to harmonize national legislation with international standards. The comparative analysis identified similarities and differences in the approaches of various countries to employee protection in emergency situations.

Keywords: emergency situations, labor law, legal and regulatory framework, comparative analysis, occupational safety, employer obligations, state supervision.

ПРАВОВЫЕ И НОРМАТИВНЫЕ ОСНОВЫ ЗАЩИТЫ РАБОТНИКОВ В ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЯХ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ

Аннотация

В данной статье проведен сравнительный анализ нормативно-правовых основ защиты работников в условиях чрезвычайных ситуаций. В исследовании изучены нормы трудового законодательства и законодательства о чрезвычайных ситуациях Республики Узбекистан, Российской Федерации, а также зарубежных государств. По результатам исследования разработаны предложения по приведению национального законодательства в соответствие с международными стандартами. В ходе сравнительного анализа выявлены сходства и различия в подходах различных государств к защите работников в условиях чрезвычайных ситуаций.

Ключевые слова: чрезвычайные ситуации, трудовое право, нормативно-правовая база, сравнительный анализ, охрана труда, обязанности работодателя, государственный контроль.

FAVQULODDA VAZIYATLARDA XODIMLARNI HIMOYA QILISHNING HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI: QIYOSIY TAHLIL

Annotatsiya

Ushbu maqolada favqulodda vaziyatlarda xodimlarni himoya qilishning huquqiy-me'yoriy asoslari qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi hamda xorijiy davlatlarning mehnat qonunchiligi va favqulodda vaziyatlar to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari o'rganilgan. Tadqiqot natijasida milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Qiyosiy tahlil natijasida turli davlatlarning favqulodda vaziyatlarda xodimlar himoyasi sohasidagi yondashuvlarining o'xshash va farqli jihatlari aniqlangan.

Kalit so'zlar: favqulodda vaziyatlar, mehnat huquqi, huquqiy-me'yoriy baza, qiyosiy tahlil, mehnat xavfsizligi, ish beruvchi majburiyatlari, davlat nazorati.

Kirish. Zamonaviy dunyoda favqulodda vaziyatlar – tabiiy ofatlar, texnogen halokatlar, epidemiyalar va boshqa kutilmagan hodisalar – jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bunday vaziyatlarda eng muhim masalalardan biri xodimlarning hayoti, sog'lig'i va mehnat huquqlarini himoya qilish hisoblanadi. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, har yili dunyoda 2,78 million kishi ish joyidagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklari tufayli hayotdan ko'z yumadi, bu esa har kuni 7600 kishining o'limini anglatadi [1]. Favqulodda vaziyatlarda esa bu ko'rsatkich keskin oshishi mumkin, chunki normal xavfsizlik talablari buziladi, ish sharoitlari keskin o'zgaradi va xodimlar ko'pincha o'zlarining odatiy vazifalaridan tashqari ishlarga jalb qilinadi. Shu sababli, favqulodda vaziyatlarda xodimlarni himoya qilishning mustahkam huquqiy-me'yoriy bazasini yaratish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida favqulodda vaziyatlar to'g'risidagi qonunchilikni shakllantirish va takomillashtirish borasida muhim qadamlar qo'ydi. 2022-yilda qabul qilingan "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun hamda 2000-yilda qabul qilingan "Fuqaro muhofazasi to'g'risida"gi Qonun mamlakatda favqulodda vaziyatlar sohasidagi huquqiy bazaning asosini tashkil etadi [2,3]. Biroq, jahon amaliyoti va xalqaro mehnat standartlari nuqtai nazaridan milliy qonunchilikni baholash, uning samaradorligini oshirish yo'llarini izlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqotning maqsadi turli davlatlarning favqulodda vaziyatlarda xodimlarni himoya qilish sohasidagi huquqiy-me'yoriy bazasini qiyosiy tahlil qilish va milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Favqulodda vaziyatlarda xodimlarni himoya qilish masalasi ko'plab olimlar tomonidan turli jihatlaridan o'rganilgan. Xalqaro mehnat tashkilotining konventsiyalari va tavsiyalari bu sohada asosiy me'yoriy hujjatlar sifatida katta ahamiyatga ega. Xususan, Xalqaro mehnat tashkilotining 155-sonli Konvensiyasi "Mehnat xavfsizligi va sog'lig'i hamda ish muhiti to'g'risida" (1981) favqulodda vaziyatlarda xodimlarni himoya qilishning asosiy tamoyillarini belgilaydi va davlatlarga milliy siyosatni ishlab chiqishda yo'l-yo'riq ko'rsatadi [4]. Mazkur Konvensiya davlatlardan ish joylarida xavfsizlikni ta'minlash, xodimlarni xavflar to'g'risida xabardor qilish va ularga tegishli o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishni talab qiladi. Bundan tashqari, 187-sonli Konvensiya "Mehnat xavfsizligi va sog'lig'i sohasidagi istiqbolli asos to'g'risida" (2006) milliy profilaktika madaniyatini shakllantirish va favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ko'rish tizimini mustahkamlash zarurligini ta'kidlaydi.

Rossiyalik olim A.M. Kurennoy mehnat huquqi sohasida, jumladan mehnat munosabatlarini zamonaviy sharoitlarda tartibga solish masalalarini ilmiy jihatdan tahlil qilgan. Ularning ilmiy ishlarida ta'kidlanishicha, favqulodda vaziyatlarda ish beruvchi va xodim o'rtasidagi munosabatlar maxsus huquqiy tartibga solishni talab qiladi, chunki oddiy mehnat qonunchiligi normalari ko'pincha bunday holatlarni to'liq qamrab olmaydi. Nikita Lyutov o'z ilmiy ishlarida favqulodda vaziyatlar sharoitida mehnat munosabatlarini tartibga solishning huquqiy mexanizmlarini tahlil qilganlar. Ular xodimlarni evakuatsiya qilish, ish haqi va ijtimoiy kafolatlar bilan bog'liq muammolarni ko'rib chiqib, qonunchilikni takomillashtirish zarurligini ta'kidlaganlar [5]. Yevropa Ittifoqi qonunchiligida favqulodda vaziyatlarda xodimlarni himoya qilish masalalari 89/391/EEC Direktivasi asosida tartibga solinadi. Ushbu direktiva ish beruvchilarga xavflarni baholash, profilaktika choralarini ko'rish va xodimlarni o'qitish majburiyatlarini yuklaydi [6]. Germaniyadagi mehnat huquqi mutaxassisi Hans Mueller o'zining tadqiqotlarida Yevropa yondashuvining afzalliklari sifatida xavflarni oldindan baholash tizimining rivojlanganligini, xodimlarning o'z xavfsizliklari to'g'risida qaror qabul qilishda ishtirok etish huquqining kafolatlanganligini va ish beruvchilarning javobgarligining aniq belgilanganligini ko'rsatgan [7]. Mueller shuningdek, Germaniya qonunchiligida favqulodda vaziyatlar vaqtida ish vaqtini uzaytirish, ta'tillarni bekor qilish va boshqa cheklovlar kiritilishi mumkinligini, biroq bu cheklovlar xodimlarning asosiy huquqlarini buzmasligi kerakligini ta'kidlagan.

Abdunabiyev T., Kurbanbayev Sh., Razzakov X. O'zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlar to'g'risidagi qonunchilikni tahlil qilib, uning rivojlanish bosqichlari va zamonaviy holatini baholagan [8]. Ular o'z tadqiqotlarida milliy qonunchilikda xodimlarni favqulodda vaziyatlarda himoya qilish masalalari alohida tartibga solinmaganligini, bu borada Mehnat kodeksi va favqulodda vaziyatlar to'g'risidagi qonunlar o'rtasida muvofiqlashtirilgan joylar mavjudligini ko'rsatgan. Bundan tashqari, A.B.Saidov o'zining ilmiy ishlarida O'zbekiston mehnat qonunchiligining xalqaro standartlarga muvofiqligini tahlil qilib, favqulodda vaziyatlarda xodimlar huquqlarini himoya qilish sohasida qo'shimcha huquqiy mexanizmlar joriy etish zarurligini asoslagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda qiyosiy-huquqiy tahlil usuli asosiy metod sifatida qo'llangan. Bu usul turli davlatlarning huquqiy tizimlarini, qonunchilik hujjatlarini va amaliyotini taqqoslash imkonini beradi. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Germaniya, Fransiya va AQSh ning favqulodda vaziyatlarda xodimlarni himoya qilish sohasidagi qonunchilik hujjatlarini o'rganilgan. Shuningdek, tadqiqotda hujjatlar tahlili usuli qo'llanilgan bo'lib, uning yordamida xalqaro mehnat tashkilotining konventsiyalari, tavsiyalari va boshqa me'yoriy hujjatlar o'rganilgan.

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv tamoyillariga amal qilingan. Favqulodda vaziyatlarda xodimlarni himoya qilish tizimi turli elementlardan – huquqiy normalar, ish beruvchi va xodimlarning huquq va majburiyatlari, davlat nazorati

mexanizmlari – iborat yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari, tarixiy-huquqiy tahlil usuli yordamida qonunchilikdagi o'zgarishlar dinamikasi o'rganilgan. Tadqiqot materiallarini yig'ish va qayta ishlashda formal-yuridik usul qo'llanilgan bo'lib, qonunchilik hujjatlarini matnlari grammatik, mantiqiy va tizimli jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasining "Aholini va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Fuqaro muhofazasi to'g'risida"gi Qonunlari, Mehnat kodeksi, Rossiya Federatsiyasining tegishli qonunlari, Yevropa Ittifoqining direktivalari hamda Xalqaro mehnat tashkilotining konventsiyalari foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Qiyosiy tahlil natijasida turli davlatlarning favqulodda vaziyatlarda xodimlarni himoya qilish sohasidagi yondashuvlarida bir qator o'xshash va farqli jihatlarni aniqlangan. Birinchidan, barcha o'rganilgan davlatlarda ish beruvchining xodimlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha asosiy javobgarlik ko'tarishi umumiy tamoyil sifatida tan olingan. Rossiya Federatsiyasining Mehnat kodeksining 214-moddasida ish beruvchi mehnat xavfsizligi va sog'lig'ini ta'minlash bo'yicha to'liq javobgarlik yuklanganligi belgilangan, bu esa favqulodda vaziyatlarga ham taalluqli [9]. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 25-moddasida ham o'xshash norma mavjud bo'lib, ish beruvchi xodimlar xavfsizligini ta'minlash uchun barcha zarur choralarini ko'rish shart ekanligi ta'kidlangan. Biroq, favqulodda vaziyatlarda bu majburiyatlar qanday amalga oshirilishi aniq belgilanmagan.

Ikkinchidan, xalqaro amaliyotda favqulodda vaziyatlarda xodimlarni himoya qilishning ikki asosiy modeli mavjudligi aniqlangan. Birinchi model – preventiv model – Yevropa Ittifoqi davlatlarida keng tarqalgan bo'lib, u asosan xavflarni oldindan baholash va profilaktika choralarini ko'rishga yo'naltirilgan [10]. Ikkinchi model – reaktiv model – AQSh va boshqa anglosakson huquqiy tizimiga mansub davlatlarda qo'llaniladi va u asosan favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganidan keyin qo'llaniladigan choralar va kompensatsiyalarga urg'u beradi [11]. O'zbekiston qonunchiligi tahlili shuni ko'rsatadiki, milliy huquqiy tizimda har ikkala modelning elementlari mavjud, biroq yaxlit va izchil yondashuv shakllanmagan.

Uchinchidan, favqulodda vaziyatlarda xodimlarning mehnat huquqlari, xususan, mehnat haqini olish, ish joyini saqlash, ijtimoiy kafolatlardan foydalanish huquqlari turli davlatlarda har xil darajada himoya qilinadi. Masalan, Germaniya qonunchiligida favqulodda vaziyatlar tufayli ish to'xtatilgan davrda ham xodimlar o'rtacha mehnat haqining kamida 60 foizini olish huquqiga ega [12]. Rossiya Federatsiyasida esa bu masala aniq tartibga solinmagan va ko'p hollarda ish beruvchi va xodim o'rtasidagi kelishuvga bog'liq. O'zbekiston Respublikasida COVID-19 pandemiyasi davrida qabul qilingan maxsus me'yoriy hujjatlar xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lsa-da, ular vaqtinchalik xarakterga ega bo'lib, doimiy huquqiy bazaga aylanmagan.

To'rtinchidan, tadqiqot natijasida davlat nazorati va javobgarlik mexanizmlarida ham sezilarli farqlar aniqlangan. Fransiya mehnat inspeksiyasi organlari favqulodda vaziyatlarda kengaytirilgan vakolatlariga ega bo'lib, ish beruvchilarga majburiy ko'rsatmalar berish va jazolarni qo'llash huquqiga ega [13]. AQShda esa OSHA (Occupational Safety and Health Administration) favqulodda vaziyatlarda maxsus standartlar va yo'riqnomalar ishlab chiqadi. O'zbekistonda Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligi tizimidagi mehnat inspeksiyasi organlari mavjud bo'lsa-da, ularning favqulodda vaziyatlardagi vakolatlari aniq belgilanmagan.

Beshinchidan, xodimlarning xavfli ish sharoitlarida ishlashdan bosh tortish huquqi xalqaro standartlarda muhim kafolat sifatida e'tirof etilgan. XMTning 155-sonli Konventsiyasida xodimning o'z hayoti yoki sog'lig'iga jiddiy va yaqin xavf mavjud bo'lganda ishni to'xtatish huquqi belgilangan [14]. Tahlil shuni ko'rsatdiki, Yevropa davlatlarida bu huquq keng talqin qilinadi va xodim bunday qarorni qabul qilganda javobgarlikdan ozod qilinadi. O'zbekiston qonunchiligida esa bu huquq Mehnat kodeksining

220-moddasida umumiy tarzda belgilangan, biroq favqulodda vaziyatlardagi amaliy qo'llanilishi aniqlashtiriladigan joylar mavjud.

Oltinchidan, COVID-19 pandemiyasi tajribasi favqulodda vaziyatlarda xodimlarni himoya qilish qonunchiligining yangi jihatlarini yuzaga chiqardi. Ko'plab davlatlarda masofaviy ish, moslashuvchan ish vaqti, karantin davrida mehnat munosabatlari kabi masalalar bo'yicha yangi huquqiy normalar qabul qilindi [15]. Mamlakatimizda ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator farmonlari va qarorlari qabul qilindi, biroq ular ko'proq operativ xarakterga ega bo'lib, tizimli qonunchilik islohotlarini talab qiladi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijasida favqulodda vaziyatlarda xodimlarni himoya qilishning huquqiy-me'yoriy asoslari har bir davlatning huquqiy tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari va tarixiy an'analari ga mos ravishda shakllanganligini ko'rsatadi. Qiyosiy tahlil asosida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqilgan.

Birinchiidan, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga favqulodda vaziyatlarda mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi alohida bob kiritish maqsadga muvofiq. Bu bob favqulodda vaziyatlarda ish beruvchi va xodimlarning huquq va majburiyatlarini, mehnat haqi to'lash tartibini, ish vaqti va dam olish vaqtini belgilashi, shuningdek, xodimlarning xavfli sharoitlarda ishlashdan bosh tortish huquqini aniq kafolatlashi lozim. Bunday yondashuv xodimlarning huquqiy maqomini mustahkamlash va ularni noaniqlikdan himoya qilish imkonini beradi.

Ikkinchidan, favqulodda vaziyatlarda xodimlarni himoya qilish bo'yicha maxsus qonun loyihasini ishlab chiqish tavsiya etiladi. Bu qonun favqulodda vaziyatlar to'g'risidagi qonunchilik va mehnat qonunchiligi o'rtasidagi bo'shliqlarni bartaraf etadi hamda xalqaro mehnat standartlariga muvofiqlikni ta'minlaydi. Qonunda xodimlarni evakuatsiya qilish, ularni o'qitish, zarur jihozlar bilan ta'minlash, tibbiy yordam ko'rsatish va boshqa masalalar aniq tartibga solinishi kerak.

Uchinchiidan, mehnat inspeksiyasi organlarining favqulodda vaziyatlardagi vakolatlarini kengaytirish va ularning faoliyatini huquqiy jihatdan mustahkamlash zarur. Bu organlar favqulodda vaziyatlarda operativ ravishda aralashish, ish beruvchilarga majburiy ko'rsatmalar berish va zarur hollarda jazo choralarini qo'llash huquqiga ega bo'lishi kerak. Shuningdek, favqulodda vaziyatlarda xodimlar huquqlarining buzilishi uchun ish beruvchilarning ma'muriy va fuqaroviy-huquqiy javobgarligini kuchaytirish lozim.

To'rtinchiidan, xodimlarni favqulodda vaziyatlarga tayyorlash bo'yicha majburiy o'quv dasturlarini joriy etish tavsiya etiladi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, muntazam o'quvlar va mashg'ulotlar xodimlarning xavfsizlik darajasini sezilarli oshiradi. Bu dasturlar davlat tomonidan tasdiqlangan standartlarga muvofiq ishlab chiqilishi va barcha korxonada va tashkilotlarda majburiy ravishda o'tkazilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, favqulodda vaziyatlarda xodimlarni himoya qilishning samarali huquqiy tizimini yaratish davlatning muhim vazifasi hisoblanadi. Xalqaro tajribani o'rganish va milliy qonunchilikni takomillashtirish orqali O'zbekiston Respublikasida xodimlarning hayoti, sog'lig'i va mehnat huquqlarini yanada ishonchli himoya qilish imkoniyatiga ega bo'linadi.

ADABIYOTLAR

1. World Health Organization. Global Health Estimates 2020: Deaths by Cause, Age, Sex, by Country and by Region, 2000-2019. – Geneva: WHO, 2020. – 178 p., https://www.who.int/docs/default-source/gho-documents/global-health-estimates/ghe2019_cod_global_2000_20194e572f53-509f-4578-b01e-6370c65d9fc5.xlsx?sfvrsn=eaf8ca5_5
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida. 2022-yil 17-avgust, O'RQ-790-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi lex.uz/docs/-6161244,
3. O'zbekiston Respublikasi Qonuni, Fuqaro muhofazasi to'g'risida. 26.05.2000 yildagi 80-II-son, <https://lex.uz/docs/-32994>
4. Международная организация труда. Конвенция № 155 о безопасности и гигиене труда и производственной среде (1981) // Конвенции и рекомендации МОТ. – Женева: МБТ, 2001. – С. 1234-1245., https://www.ilo.org/sites/default/files/wcmsp5/groups/public/@ed_norm/@normes/documents/normativeinstrument/wcms_c155_r_u.htm
5. LYUTOV N.L. The Transformation of Employment Relations and New Forms of Employment in Digital Economy Journal of Russian Law, 2019, no. 7. 115-130 pp. <https://cyberleninka.ru/article/n/transformatsiya-trudovogo-pravootnosheniya-i-novye-formy-zanyatosti-v-usloviyah-tsifrovoy-ekonomiki/pdf>
6. Council Directive 89/391/EEC on the introduction of measures to encourage improvements in the safety and health of workers at work // Official Journal of the European Communities. – 1989. – L 183. – P. 1-8., <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/ALL/?uri=celex:31989L0391>
7. Mueller H. Emergency Preparedness and Worker Protection in German Labour Law // European Labour Law Journal. – 2018. – Vol. 9. – № 2. – P. 156-172
8. Абдунабиев Т.А., Курбанбаев Ш.Э., Раззаков Х.М. Этапы организации, развития и совершенствования государственной системы предотвращения и действий в чрезвычайных ситуациях Республики Узбекистан // Технологии гражданской безопасности. 2023. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/etapy-organizatsii-razvitiya-i-sovershenstvovaniya-gosudarstvennoy-sistemy-predotvrasheniya-i-deystviy-v-chrezvychaynyh>
9. Трудовой кодекс Российской Федерации от 30.12.2001 №197-ФЗ https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34683/
10. Brown J.K., Williams R.S. Emergency Response and Labor Law in the United States: A Comprehensive Analysis // Journal of Labor and Employment Law. – 2021. – Vol. 43. – № 1. – P. 89-118., file:///C:/Users/Acer/Downloads/rdctss-4770.pdf
11. O'zbekiston Respublikasi mehnat kodeksi 30.04.2023., <https://lex.uz>
12. Mueller H. Emergency Preparedness and Worker Protection in German Labour Law // European Labour Law Journal. – 2018. – Vol. 9. – № 2. – P. 156-172., <https://www.econstor.eu/bitstream/10419/38782/1/60733827X.pdf>
13. Dubois P., Martin L. Le droit du travail en situation d'urgence: l'expérience française // Revue de droit du travail. – 2020. – № 6. – P. 412-428., https://pmb.cereq.fr/index.php?lvl=bulletin_display&id=34375
14. Рогалева Г.А., Рогалева И.Ю. Правовое регулирование трудовых отношений в условиях трансформации экономической модели четвертой промышленной революции // Вестник Университета имени О. Е. Кутафина. 2019. №11 (63). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/pravovoe-regulirovanie-trudovyh-otnosheniy-v-usloviyah-transformatsii-ekonomicheskoy-modeli-chetvertoy-promyshlennoy-revolutsii>
15. International Labour Organization. COVID-19 and the World of Work: Impact and Policy Responses. – Geneva: ILO, 2021. – 86 p., <https://www.ilo.org/media/9996/download>